

MILLIY O'ZLIK VA MA'NAVIY QADRIYATLAR

*Artiqboev Ilxomjon Egamberdievich
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
Andijon viloyati boshqarmasi bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifikat, yuksak ma'naviyat kerak. Maqolada muallif tomonidan milliy qadriyatlarning yoshlarni tarbiyalashdagi muhim axamiyati xamda qadriyatlarimizga qarshi buzg'unchi g'oyalarning bartaraf etishga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Qadriyat, "taraqqiyot strategiyasi", yoshlar tarbiyasi, shaxs erkinligi, qadriyatlar, milliy qadriyat, millat, ezhulik va insonparvarlik g'oyalari.

Annotation: In order to increase the knowledge and level of not only young people, but also members of our entire society, first of all, knowledge and high spirituality are needed. In the article, the author gives recommendations on the importance of national values in educating young people and the elimination of destructive ideas against our values.

Key words: Value, "strategy of development", youth education, individual freedom, values, national value, nation, goodness and humanitarian ideas.

Аннотация: Для повышения знаний и уровня не только молодежи, но и членов всего нашего общества необходимы, прежде всего, знания и высокая духовность. В статье автор дает рекомендации о важности национальных ценностей в воспитании молодежи и искоренении деструктивных идей против наших ценностей.

Ключевые слова: Ценности, «стратегия развития», воспитание молодежи, свобода личности, ценности, национальные ценности, нация, добро и гуманитарные идеи.

KIRISH

Ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sa'y harakatlar ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga sodiq qolib, "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan tamoyilga amal qiladi.

Har bir jamiyat o'z oldiga yetuk, har tomonlama kamolga yetgan, o'zida butun ijobjiy, olivjanob xislatlarni to'plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. SHuning uchun tarbiya o'tmishimizning uzoq-uzoq davrlariga borib taqaladi. Tarbiyali, ma'naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, shuningdek kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Zotan, mamlakatimizning "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari"

buyuk maqsadiga erishuvida ma’naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Prezidentimiz SH.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq. Buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so‘zleri bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytildi. Demak, insoniyat ongi hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta’lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda”.

Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda manfaatlar to‘qnashushi kuchaymoqda.

Insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib bormoqda. Ijtimoiy-ma’naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o‘zi talab etmoqda.

“Agar kimdir, ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o‘ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiylar, eng muhim vazifalardan biridir... Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyevning keyingi yillarda ma’rifat, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish yo‘lida imzolagan qonun, Farmon va qarorlari, ilgari surayotgan ezgu tashabbuslari O‘zbekistonda yangi Ma’rifat Renessansiga mustahkam poydevor yaratmoqda. Tarixdan ma’lumki, ajdodlarimiz yaratgan har ikki Renessans davrida dunyo ilmi bizga juda katta turtki bo‘lgan. Jahan taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab bergen birinchi Renessans davrida Xorazmda barpo etilgan Ma’mun akademiyasi o‘z bag‘riga buyuk mutafakkirlarni to‘plab, dunyoning eng ilg‘or ilmlarini o‘zlashtirdi, bu ilm butun dunyo uchun namuna vazifasini o‘tadi. Temuriylar yaratgan ilm maktablari ham ayni shu yo‘ldan bordi. Bu davrda ham ilm o‘rganishni istovchilar butun dunyodan oqib kela boshladi. Bugun dunyoga yangi O‘zbekiston nomi bilan atalgan uchinchi Renessans g‘oyasi o‘z atrofiga davlatni, jamiyatni, butun xalqni birlashtira oladi.

Inson va uni tarbiyalash, yetuk shaxsni kamolga yetkazish masalasi qadimdan SHarq olimlari, mutafakkir va donishmandlarining diqqat- markazida bo‘lib kelgan. Ular inson zotini yuksaklikka ko‘targanlar, uni tirik mavjudotlar orasida eng a’losi deb hisoblaganlar. Tarixiy taraqqiyot davomida ro‘y bergan Renessanslar aynan shu buyuk

g‘oyalari asosida vujudga kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni beshinchi yo‘nalishi “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” maqsadidagi «Yangi O‘zbekiston — ma’rifatli jamiyat» konsepsiyasini amalga oshirish doirasida ma’naviy tarbiyani muntazam va uzlusiz olib borish, jamiyatimizni ma’naviy-axloqiy jihatdan mustahkamlash, fuqarolarning ezgulik va insonparvarlik g‘oyalari hamda yuksak ma’naviyat tamoyillariga asoslangan sog‘lom dunyoqarashi va zamonaviy tafakurini “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasi asosida shakllantirishni umummiliy harakatga aylantirish borasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini qo‘llash, yoshlar qalbida bag‘rikenglik, shukronalik ruhini tarbiyalashda ta’lim muassasalarining rolini yuksaltirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglikni ta’minalashda yoshlar faolligini oshirish, mafkuraviy immunitetini yuksaltirishning dolzarb masaladir. Zero, milliy taraqqiyotimizning kelajak rivoji bevosita bugungi yoshlarimizda ta’lim vatarbiya asosida shakllanadigan tafakkur darajalari bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqlaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib, yakdil va ahil bo‘lib harakat qilsak, halol-pok bo‘lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallahga, boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqmiz. ... Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi”. “Emaklab yurgan odam hech qachon ucholmaydi,” deydi xalqimiz. Xalqimiz azal-azaldan ma’rifatli bo‘lishni eng ulug‘ va noyob fazilat hisoblaydi.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday ijtimoiy, moddiy, ma’naviy narsa yoki hodisa o‘tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo‘lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi. Boshqacha aytganda, qadriyatlar jamiyat va ma’naviy taraqqiyotning zaruriy mahsulidir.

Qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari majmuidir.

Qadriyatlar ahloqiy qoida va me'yorlar, g'oyalar va maqsadlardagi baholash mezoni hamda usullarini o'zida aks ettiradi: Ular halollik, poklik, o'zaro yordam va adolatliligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar: burch, vijdon, or-nomus, mas'uliyat kabi ahloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo'ladi.

Qadriyat-boshqa bir ta'rifda esa qadriyat bu atrof muhitdagi narsalarni, hodisalarni ularning inson va jamiyat uchun ahamiyatga qarab, ijobiy yoki salbiy deb baholash ularni muhim yoki nomuhim, zaruriy yoki keraksiz, qadrli yoki beqadr asosiy yoki ikkinchi darajali deb belgilash natijasida vujudga keladigan tushuncha yoki nuqtai nazarlarda aks etuvchi ob'eklardir, deb belgilangan.

Fikrimizcha, qadriyat–bu tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilar tomonidan yaratilgan, moddiy va ma'naviy boyliklar bo'lib, u inson va insoniyat uchun ahamiyat kashf etib, ular manfaati va ehtiyojini qondirish: takomillashuvi, kelajak avlodning ijodiy o'sishini rag'batlantirish omilidir.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatları bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyat millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Milliy qadriyatlar–millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega jihatlar, xususiyatlar, moddiy va ma'naviy boyliklardir.

Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birlashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma'naviy qiyofamiz, an'analarimiz va o'zligimizni anglashga yordam beradi va bu borada xalqni-xalq, millatni –millat sifatida birlashtiradi. Zero, o'z qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi; buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, istiqlolni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg'uradi va kurashadi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatni yangilashga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy omil hisoblanadi.

Xullas, Millat mavjud ekan milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma'naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borish ham milliy qadriyatlarning rivojlanish va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi. Umuman olganda, milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Milliy qadriyatlarning qudratli manbai va azaliy urf-odatlarimizdan biri-oila va qarindoshlik munosabatlar odobidir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

“Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda.

Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur etkazmoqda.” 1998 yil 2 fevralda Respublika xotin qizlar qo‘mitasi xuzurida “Oila” ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi oilaga taalluqli milliy an’analarni, umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila a’zolarining huquqiy savodxonligini oshirish yo‘lida katta qadam qo‘yildi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxsni ijtimoylashtirish, uni har tomonlama shakllantirish, komolga etkazish, rivojlantirish eng muhim vazifa sifatida insonni tarbiyalash, unga ta’lim berish, yuksak qadratli, dunyoqarashi keng qamrovli chuqur, bilimdon hamda sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash ayniqsa, dolzarbdir. Inson-eng oliv qadriyat, Shu bois, millatimizga xos bo‘lgan qadriyatlardan yana birlabolajonlik, Oilada ko‘p farzandlarni dunyoga keltirish va ularni kamolga etkazish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlarimizning asosiy xazinaboni-oila deb oladigan bo‘lsak, bu xazinani asl san’at asari darajasiga ko‘taruvchi naqqoshlar mahalla va mакtabdir. Muxtasar aytganda, maktab degan ulug‘ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi beqiyosdir. “Mahalla ham ota, ham ona” degan hikmatli naql haqiqat, bejiz aytilmagan. Chunki, mahalla haqida gapirganda, ko‘pchilik ana shunday chuqur ma’noli so‘zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona” degan maqolning haqiqiy ma’nosini anglaydigan vaqt keldi. Anglab, shu asosida yashaydigan vaqt keldi. Har qanday millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashuvidan tarkib topadi. SHu boiz milliy qadriyatlarga e’tiborni ko‘chaytirish kerak. CHunki, milliy qadriyatlarga e’tibor kamayar ekan, bu o‘z navbatida umuminsoniy qadriyatlarning boyishiga salbiy ta’sir etadi.

Biz ming yillar davomida shakllangan, odamlarning hayoti ichki dunyosidagi mustahkam o‘rin olgan, unga barcha amal qiladigan, insonlarning qon-qoniga singib ketgan an’alarimizni, ota-bobolarimiz bizga qoldirgan oljanob qadriyatlarni, g‘ururimizni ko‘taradigan, xalqimizni obro‘siga obro‘ qo‘shadigan insoniy odat va fazilatlarni saqlash, asrab-avaylash va eng katta boylik sifatida yangi kelajak avlodlarga etkazish zarur. Bugun yurtimizda qadriyatlarimizni qadrlaydigan, ezgu an’analarga o‘z hayotiy mo‘ljalida muhim omil sifatida munosabatda bo‘ladigan yoshlar ko‘p.

Lekin hayoti va istiqbolida milliy qadriyatlarning o'rnini biroz to'g'ri tushunmaydigan yoki o'zini undan xoli holda ko'rib milliy madaniyatimizga e'tiborsizroq bo'lgan yoshlarimiz borligini ham hozircha inkor etolmaymiz.

Barchamiz guvohmiz-bugun dunyo misli ko'rilmagan sur'atlar bilan keskin o'zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko'plab ijobjiy jarayonlar bilan birga, yosh avlodning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma'naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda. Ijtimoiy hayotni jamiyat tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlarsiz tasavvur qilish mushkul, ularsiz yashab bo'lmaydi. Biroq qadriyatlarmizga qarshi bo'zg'unchi g'oyalar ya'ni: "shaxs erkinligi" ga qarshi oila va jamiyat oldidagi yuksak ma'suliyatni: "individualizm"ga qarshi jamoaviylik, mahalladoshlikni, "egotsentrizm"ga qarshi ota-onas, qarindosh-urug'larni hurmat qilish, mehr-oqibatni, "olomon madaniyatiga qarshi" milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash orqali jamiyatimiz barqarorligiga tahdid soluvchi illatlarga qarshi ong-tafakkurda mafkuraviy to'siq qo'yish darkor.

XULOSA

Bugungi erkin va ozod hayotning ma'nosi va qadr-qimmatini yoshlarning ongi va qalbiga etkazishda birinchi navbatda ota-onalar, ustoz-murabbiylar mas'ul bo'lmog'i kerak. Zero, Bugun yoshlarimiz qanday qadriyatlari sari intilmoqda, qanday orzu-niyat va o'y-hayollar bilan yashamoqda, biz bunga loqayd va befarq qaramasligimiz kerak.

Ota-onas, ustoz-murabbiy, etakchi-rahbar sifatida bu jarayonni chetdan turib kuzatishga haqqimiz yo'q". Bugungi kunda farzanlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. 1997 y. 6-jild, Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O'zbekiston», 2000.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2003.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O'zbekiston», 2000.
4. Falsafa qomusiy lug'at.
5. Mirziyoev SH. «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 23 oktyabr, 2019.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. YOshlar nashriyot uyi, T.: 2018.
7. Bobokalonov R. Til, milliy ruh va ma'naviyat. Buxoro, 2020.